

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA GULHAYO KAMOL QIZI**

**O‘ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ISLOHOTLARNING  
SHAXS MA’NAVIY QIYOFASIGA TA’SIRI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Ismoilova Gulhayo Kamol qizi**

О‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning shaxs ma’naviy  
qiyofasiga ta’siri..... 3

**Исмоилова Гулхаё Камол кизи**

Влияние экономических реформ в Узбекистане на  
духовный облик личности..... 23

**Ismoilova Gulhayo Kamol kizi**

Influence of economic reforms in Uzbekistan on spiritual  
image of the individual..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of works published ..... 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA GULHAYO KAMOL QIZI**

**O‘ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ISLOHOTLARNING  
SHAXS MA’NAVIY QIYOFASIGA TA’SIRI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fal362 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Choriyev Sanjarbek Anvarovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajiyeva Maqsuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Tuxtarov Ismatulo Murodovich**  
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "12" iyun soat 10 <sup>BLB</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (452 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "30" may kuni tarqatildi.

(2024 yil "30" may dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Navro'zova G. N.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipova O.T.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda keyingi o'n yilliklar mobaynida jamiyatni rivojlantirishning yangi modeliga o'tish, inson taraqqiyoti konsepsiyasi prinsiplariga to'la rioya etish, taraqqiyot markaziga insonni qo'yish, iqtisodiy o'sishda shaxs imkoniyatlarini oshirish, ularning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini yanada ko'proq qanoatlantirish, yuqori sifatli hayot tarzini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, iqtisodiy islohotlarni inson va jamiyat manfaatlariga muvofiqlashtirish, shaxs siyosiy faolligini va jamiyatdagi rolini oshirib borish taraqqiyot strategiyalarining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Iqtisodiy yangilanishlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotga va shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'sirini hamda hissiy, aqliy, sifatli, aksiologik va irodaviy jihatlarni ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida iqtisodiy jarayonlarning shaxs dunyoqarashiga ta'siri, farovonlik, iqtisodiy salohiyat potentsiali, inson taraqqiyoti komponentlarini aniqlashga doir innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda "iqtisodiy jarayonlar – shaxs ma'naviy olami" aloqadorligi turli rakurslarda talqin etilib, shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish, uni har tomonlama rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlarini joriy qilish, bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasi ustuvor yo'nalishlar qatoriga qo'yilmoqda. Ayniqsa, rivojlanish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda shaxs ma'naviy qiyofasining madaniy-axloqiy, ta'lim, intellektual omillarini hamda uni takomillashtirishda institutsional tizimlarning funksiyalari, tarixiy, ijtimoiy va personalistik aspektlarini, ijtimoiy jarayonlarning shaxs hayotiy faoliyatiga ta'siri hamda barqaror ma'naviy muhitni barpo qilish ko'rsatkichlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, barqaror iqtisodiy o'sish, sifatli ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish maqsadida chuqur harakatlar olib borilmoqda. "Biz jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalar va o'z yechimini kutib turgan muammolarni hal etish uchun keng ko'lamli faoliyatimizni izchillik bilan qat'iy davom ettiramiz. Keyingi yillarda ham bizning ustuvor vazifamiz dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi. Ayni paytda mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, fuqarolarimiz salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, aholimizning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalari ham dolzarbligini saqlab qolmoqda"<sup>1</sup>. Ayni paytda yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda shaxs ma'naviy olamidagi salbiy holatlarning oldini olish, unga iqtisodiy jarayonlarning ta'sirini tadqiq etish, shaxs kayfiyati va tasavvurlari, fazilatlarini va qadriyatlarining o'zgarish sabablari, yangi ma'naviy makonni shakllantirish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston", – 2023. – B.53.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-maydagi PQ-246-son “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shaxs dunyoqarashi va ruhiyatida salmoqli o‘zgarishlar shaxs ma’naviy olamiga bo‘lgan ilmiy qiziqishni yanada orttirdi. Buning natijasida xorijda M.Byernxolning zamonaviy inson ma’naviy dunyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar tahlili, D.Krosbining bugungi insondagi nigilistik kayfiyat sabablari talqini, J.F.Liotarning postmodern inson ma’naviyatiga, R.Reynxoldning zamonaviy shaxs ma’naviy dunyosi xususiyatlariga bag‘ishlangan asarlari ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilindi<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ushbu muammoga mutaxassislar o‘tgan asrning 70-80-yillaridayoq e‘tibor qaratgandilar<sup>3</sup>. Biroq XXI asrda shaxs ma’naviy dunyosining transformatsiyasi jadallashgani bois bu muammo tizimli va izchil o‘rganila boshlandi. Xususan, A.Averin, G.Absalyamova va G.Baygulova shaxs ma’naviy dunyosi tarkibiy tuzilishi haqidagi falsafiy tasavvurlarni umumlashtirgan bo‘lsalar, N.Andryushina shaxs

---

<sup>2</sup> Bjornholt M. Modern Men A Norwegian 30-Year Longitudinal Study of Intergenerational Transmission and Social Change. Doctoral Dissertation. – Örebro, 2014; Crosby D. The Specter of the Absurd: Sources and Criticisms of Modern Nihilism. - Albany: State University of New York Press, 1988; Lyotard J.F. La condition postmoderne: rapport sur le savoir. – Paris: Minuit, 1979; Reinhold N. The Nature and Destiny of Man, Vols 1-2. – London, Westminster John Knox Press, 1996. - 684 p.

<sup>3</sup> Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. – М.:Мысль, 1988; Вишнеvский С.С. Формирование духовного облика советского человека. – М.: Мысль, 1986; Сычев Ю. В. Микросреда и личность. – М.: Мысль, 1974; Попова М.А., Филиппова Е.И. Духовный мир личности и атеизм. – М.: Политиздат, 1979.

ma'naviy olamining shakllanishi qonuniyatlarini, L.Zorilova shaxs ma'naviy ideallarining shakllanishi sabablarini, M.Krasilnikova ijtimoiy jarayonlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'sirini tavsiflaganlar<sup>4</sup>.

O'zbekistonda ma'naviyat va shaxs ma'naviy qiyofasi bilan bog'liq muammolar M.Abdurahmonov, S.Otamurodov va Sh.Rizayev, M.Xajiyeva, S.Mirzaliyev va M.Adasheva, X.Axmetov, M.Imomnazarov, R.Norliyev, R.Ro'ziyeva, R.Rustamov, B.Turdiyev, A.Erkayev, A.Sharipov, F.Yuldoshova, A.Haydarov asarlarida "ma'naviyat" tushunchasining mazmuni, jamiyat ma'naviy sohasidagi o'zgarishlar kontekstida ochib berilgan. J.Jabborov, I.Karimov, A.Mavrulov, A.Muxtorov, Q.Nazarov, I.Tuxtarov, S.Choriyevlarning ilmiy ishlarida esa shaxs ma'naviy olamidagi transformatsion jarayonlar tahlil qilingan<sup>5</sup>.

Mavzuga oid ilmiy ishlar shaxs ma'naviy qiyofasi mazmuni va shakllanishi qonuniyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynadi, albatta. Biroq iqtisodiy jarayonlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri bilan bog'liq jihatlarni alohida tadqiqot obyektiga aylantirish, tadqiq etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida mazkur zaruratni amalga oshirishga, shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida iqtisodiy islohotlarning ahamiyatini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya

<sup>4</sup> Аверин А. Н. Структура духовного мира человека. // Вестник Воронежского государственного университета, 2008, №1. – С.71-76; Абсалямова Г.Г., Байгулова Г.С. О сущности и структуре духовности личности.// Вестник Череповецкого государственного университета, 2012, №2. – С.104-107; Андриюшина Н.Е. Духовный мир личности как социально-философская проблема: Автореф. дисс... канд. ф.н. – М.:МПГУ, 1992; Зорилова Л.С. Духовные идеалы личности: теория, история и современные проблемы формирования: Автореф. дисс. д. культурол. н. – М: МГИК,1999; Красильникова М. Динамика социальных настроений и их влияние на поведение населения. // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены, 2002, - №1. – С.92-98

<sup>5</sup> Отамуродов С., Абдурахмонов М., Ризаев Ш. Ўзбекистонда маънавият соҳасидаги ислохотлар: ривожланиш босқичлари, эришилган натижалар ва истикболи.- Т.:Академия, 2010; Ҳажиева М.С. Ёшлар тарбиясида маънавий-маърифий концепцияларни ўрни ва роли.// Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштиришнинг долзарб масалалари. Респ. конф. мат.- Т., 2021; Мирзалиев С.М., Адашова М.М. Миллий маънавият ривож – жамият маънавий тараққиётининг асосидир.// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, -№23, -Б.793-802; Ахметов Х.А. Ўзбекистонда жамият маънавий ҳаётидаги ўзгаришлар динамикаси (ижтимоий-сиёсий таҳлил): Сиёс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. – Т.: ДБА, 2018; Имомназаров М. Миллий маънавиятнинг такомил босқичлари. – Т., 1996; Норлиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлик хусусиятлари: Фалс.ф.н.... дисс. автореф. – Т.: ЎЗМУ, 2011; Рўзиева Р.Х. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини шакллантириш масалалари: Фалс.ф.н.... дисс. автореф.- Т.:ЎЗМУ, 2012; Рустамов Р.Р. Геополитик рақобат шароитида маънавий тарғибот системасидаги атрибутив ўзгаришлар: муаммолар ва ечимлар: Фалс. д. (PhD) дисс. – Самарқанд: СамДУ, 2019; Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси: Фалс.д. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021; Эркаев А.П. Маънавиятшунослик. Икки томлик. – Т.: Маънавият, 2018; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021; Юлдашова Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалс. д. (PhD) дисс. автореф. – Т.:ЎЗМУ, 2019; Ҳайдаров А. Ҳаракатлар стратегияси ва маънавий юксалиш. – Т.: Донишманд зиёси, 2020; Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар юксалиши – жамият ривожланишининг муҳим омили сифатида: Фалс.д. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2023; Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008; Маврулов А. Маънавият – эҳтиёж маҳсули. // Шарқ юлдузи, 2010, - №4. -Б.3-7; Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари. - Т.: Маънавият, 2015; Назаров Қ. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлари. – Т., 1994; Тухтаров И.М., Эргашев У., Умурзақов А. Мафкуравий омиллар ва ёшлар тафаккури.// Yosh Tadqiqotchi, 2022, №4; Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб. – Т.: Чинор, 2002;

Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Barkamol inson shaxsining shakllanishida ob’yektiv shart-sharoitlar va sub’yektiv omillar dialektikasi” (2020-2025 yy) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning shaxs ma’naviy qiyofasiga ta’sirini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“ma’naviy qiyofa” tushunchasiga doir ilmiy-falsafiy tasavvurlarni tahlil qilish;

shaxs ma’naviy qiyofasining shakllanish jarayoniga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash;

O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uni hayotga tatbiq etishning asosiy natijalarini umumlashtirish;

iqtisodiy islohotlar ta’sirida shaxs ma’naviy qiyofasida kardinal o‘zgarishlar yuz berganini isbotlash;

yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda shaxs ma’naviy qiyofasini yuksaltirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida shaxs ma’naviy qiyofasining tarkibiy komponentlari va uning shakllanishiga ta’sir o‘tkazuvchi institutlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar davrida shaxs ma’naviy qiyofasi mazmuni va xarakterida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

shaxs ma’naviy qiyofasiga xos tuyg‘u va kechinma (hissiy), bilim va e’tiqod (aqliy), fazilat va xislat (sifatiy), qadriyat va ma’naviy ideal (aksiologik) hamda iroda va ma’naviy jur’at (irodaviy) xususiyatlarning o‘zaro dialektik aloqadorligi hamda inson amaliy faoliyatida namoyon bo‘lishi falsafiy asoslangan;

davr muhiti va ijtimoiy islohotlar shaxs ma’naviy qiyofasi paradigmasining shakllanishida jamiyatga optimistik yoki pessimistik munosabatini belgilashi, iqtisodiy islohotlar bilimga va qadriyatlarga munosabatni o‘zgarishiga olib kelishi, siyosiy islohotlar mas’uliyatlilik va daxldorlik tuyg‘ularini rivojlantirishi, madaniy islohotlar savodxonlikni oshirishi, ma’naviy-ma’rifiy saviyani yuksaltirishi isbotlangan;

“iqtisodiy jarayonlar – shaxs” prinsipi asosidagi iqtisodiy islohotlar inson ongida pozitiv o‘zgarishlar sodir qilib, turmush farovonligini oshiruvchi tizimga aylanish, iqtisodiy erkinliklar va manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash, mamlakat iqtisodiy potensialini yuksaltirish orqali shaxs ma’naviy qiyofasining o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mantiqiy dalillangan;

transformatsion iqtisodiy shart-sharoitlarda namoyon bo‘layotgan xaridga moyillik, boqimandalik, shuhratparastlik, isrofgarchilik, ijtimoiy passivlik, xulq-atvor normalariga e’tiborsizlik kabi illatlarni ma’naviy salohiyatni oshirish va moliyaviy resurslarni boyitish orqali bartaraf etish zarurati falsafiy qonuniyat asosida ochib berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

insonning ma'naviy qiyofasi uning xulqiga, yurish-turishi, xatti-harakatiga sifat va yo'nalish baxsh etishi, vatanparvarlik, fidoyilik, o'z kasbiga munosabatida namoyon bo'lishi, yuksak fazilat hamda insonparvar e'tiqod va qadriyatlarga ega shaxsni ifoda etishi asoslab berilgan;

shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning sog'lom mikromuhit, salomatlik, qobiliyat, kasb-kor, ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish kabi omillari aniqlangan va uning shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadigan murakkab jarayon ekanligi dalillangan;

shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi ma'naviy makonning erkinlik va xavfsizlikning ta'minlanganligi, ma'naviy-ruhiy muhitning mustahkamligi, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan ma'rifiy tizimning shakllanganligi kabi tamoyillari ochib berilgan hamda ma'naviy makonni barpo etishda oilaviy tarbiyani rivojlantirish zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan shaxs ma'naviy qiyofasiga doir izlanishlarni, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan yangi pog'onaga chiqarish, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarida, taraqqiyot strategiyalari sohasidagi islohotlarni amaliyotga tadbiq etish jarayonlarida metodologik asos sifatida hamda transformatsion o'zgarishlarni amalga oshiradigan madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, ma'naviy salohiyatni o'stirish bilan shug'ullanuvchi markazlar, ma'naviy-madaniy tarbiya o'choqlari o'zining amaliy, kundalik faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma'naviyat va ma'rifat markazlari va turli ijtimoiy institutlarning ma'naviy ishlarni amalga oshirish, shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir yangi normativ-huquqiy hujjatlarni, ma'naviy sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan yo'l xaritasi va dasturlarni ishlab chiqishda, "iqtisodiy jarayonlar – shaxs" kontekstiga doir siyosatni amalga oshiruvchi muassasalar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlarining ma'naviy tahdidlardan himoyalanihga doir o'quv-tarbiya jarayoniga va ularining metodik ta'minotini yaratishda, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarning mazmunini boyitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiy islohotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri xarakterini tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

shaxs ma'naviy qiyofasiga xos tuyg'u va kechinma (hissiy), bilim va e'tiqod (aqliy), fazilat va xislat (sifatiy), qadriyat va ma'naviy ideal (aksiologik) hamda iroda va ma'naviy jur'at (irodaviy) xususiyatlarning inson amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi va o'zaro aloqadorligiga oid nazariy mulohazalardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishga doir dastur va loyihalarning ijrosida, jumladan, 2023-yil davomida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2023-yil 30-avgustdagi 04-13/763-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim-tarbiya jarayonlarida jamoaviy tarbiyaga, talaba-yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini yanada takomillashtirishga, ijtimoiy faollikni oshirish va dominantlik xususiyatlarini mustahkamlashga xizmat qilgan;

davr muhiti va ijtimoiy islohotlar shaxs ma'naviy qiyofasi paradigmasining shakllanishida jamiyatga optimistik yoki pessimistik munosabatini belgilashi, iqtisodiy islohotlar bilimga va qadriyatlarga munosabatni o'zgarishiga olib kelishi, siyosiy islohotlar mas'uliyatlik va daxldorlik tuyg'ularini rivojlantirishi, madaniy islohotlar savodxonlikni oshirishi, ma'naviy-ma'rifiy saviyani yuksaltirishiga doir xulosa va takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan "Oltin voha", "Najot-bilimda", "Tahlil va taqqos" teleradioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 18-avgustdagi 17-05/159-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxs ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning asosiy vazifalari, ma'naviy merosni asrash, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri bo'yicha teletomoshabinlarga kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini ta'minlashga xizmat qilgan;

"iqtisodiy jarayonlar – shaxs" prinsipi asosidagi iqtisodiy islohotlar inson ongida pozitiv o'zgarishlar sodir qilib, turmush farovonligini oshiruvchi tizimga aylanish, iqtisodiy erkinliklar va manfaatlar uyg'unligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiy potensialini yuksaltirish orqali shaxs ma'naviy qiyofasining o'zgarishiga sabab bo'lishiga oid keltirilgan nazariy mulohazalar va amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishi 9-bandi "Yangi O'zbekiston – xalqparvar davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini targ'ib qilish borasidagi ustuvor vazifalar" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 30-avgustdagi 02-22/898-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uni hayotga tatbiq etish bo'yicha o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi tadbirlarni amalga oshirishga, targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

transformatsion iqtisodiy shart-sharoitlarda namoyon bo'layotgan xaridga moyillik, boqimandalik, shuhratparastlik, isrofgarchilik, ijtimoiy passivlik, xulq-atvor normalariga e'tiborsizlik kabi illatlarni ma'naviy salohiyatni oshirish va moliyaviy resurslarni boyitish orqali bartaraf etish zaruratiga oid nazariy mulohazalar va amaliy taklif-tavsiyalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan A-1-173 raqamli "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" (2021-2022 yy) amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023- yil 21- avgustdagi 04/2978-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxs ma'naviy qiyofasining tarkibiy tuzilishi va shakllanish xususiyatlarini aniqlashga, O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri xarakterini ochib berishga, yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda namoyon bo'layotgan illatlarni bartaraf etish zaruratini asoslashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 118 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Shaxs ma'naviy qiyofasini tadqiq etishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda "ma'naviy qiyofa" tushunchasining mazmuni va tarkibi, shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanish xususiyatlari tadqiq etilgan.

Sharq va G'arbda inson tabiati to'g'risida mulohaza yuritgan mutafakkirlar uning mohiyatini, insonni inson qilib turgan ibtidoni aniqlab olishga uringanlar. Bu urinishlar sharofati bilan qator tushunchalar muomalaga kiritilgan. Ana shunday tushunchalarning eng ahamiyatlilaridan biri "ma'nas" tushunchasidir. "Ma'nas" sanskrit tilida aql degan ma'noni anglatgan. Qadimgi Hind falsafasining arkoniy

tushunchalaridan biri sifatida u ongning barcha ko‘rinishlari, barcha holati va faoliyati – aql, fahm-farosat, hissiyot, tuyg‘ular, sezgilar, iroda va hokazolarning manbayidir. U tanaga oid hisoblanadi va tana bilan birga paydo bo‘ladi”<sup>6</sup>. “Ma’nas” tushunchasi Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Xitoy mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar sharofati bilan boshqa mamlakatlardagi ta’limotlar tarkibidan joy ola boshlagan. Xususan, ilk islom ilohiyotchilari bu tushunchani “ma’no” tarzida o‘zlashtirganlar<sup>7</sup>. “Ma’no” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasining vujudga kelishiga zamin yaratgan. “Rumiy tushunchasida ma’naviyat – haq, haqiqat mohiyati. Unga inson nafsdan qutulib, o‘zlikdan kechib, fano orqali yetishadi va u bilan birlashadi. Demak, ma’naviyat, so‘fiycha talqin qilinsa, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqatning inson ongida, hissiyotida hamda irodasida mushtaraklik kasb etishidir”<sup>8</sup>. Jaloliddin Rumiydan so‘ng uzoq asrlar davomida “ma’naviyat” tushunchasi asosan diniy mazmunda qo‘llanilgan. Buni, jumladan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida ham ko‘rish mumkin<sup>9</sup>. Sovet davridagi falsafiy manbalarda u “духовность” tushunchasiga mazmunan mos bo‘lgan kategoriya sifatida ishlatilgan. Mustaqillik yillarida turli ijtimoiy jarayonlarning ta’siri o‘laroq tushuncha talqini tubdan o‘zgargan.

Dissertant fikricha, “ma’naviyat” tushunchasini insonga nisbatan qo‘llaganda, “ma’naviy qiyofa” tushunchasi ishlatiladi. Tadqiqotda *“ma’naviy qiyofa insonning insoniyligini, uning ongi bilan faoliyatining birligini xarakterlovchi barcha ijobiy, insoniy fazilatlar, xislatlar, xosiyatlar yig‘indisi bo‘lib, insonning insonga, insonning tabiatga, insonning jamiyatga, o‘zi yashayotgan ijtimoiy tuzumga, o‘sha jamiyatda mavjud bo‘lgan huquqiy-axloqiy normalarga, talablarga, prinsiplarga, qoidalarga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi”* – deb ta’rif keltirilgan. Mazkur fazilat, xislat va xosiyatlar inson borlig‘iga yaxlitlik, barqarorlik ato etadi, uning hayotiy faoliyatiga muayyan yo‘nalish beradi.

Dissertatsiyada shaxs ma’naviy qiyofasi tarkibiy tuzilishi quyidagicha ifodalangan: (Qarang: 1-rasm)

Hissiy jihati	Aqliy jihati	Sifatiy jihat	Aksiologik jihat	Irodaviy jihat
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tuyg‘ular</li> <li>• Kechinmalar</li> <li>• Kayfiyat</li> <li>• Tasavvurlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma’lumot</li> <li>• Bilimlar</li> <li>• E’tiqod</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Fazilatlar</li> <li>• Hislatlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Qadriyatlar</li> <li>• Orzular</li> <li>• Ma’naviy ideal</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iroda</li> <li>• Ma’naviy jurat</li> </ul>

### 1-rasm. Shaxs ma’naviy qiyofasining tarkibiy tuzilishi

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, insonning ma’naviy qiyofasi uning faoliyatida yorqin namoyon bo‘ladi. Xususan u:

- shaxs ichki olamini tashkil etgan neki tuyg‘u bor, neki ruhiy holat bor, u o‘zlashtirgan neki ma’lumot va bilim bor, qadr-qimmat kasb qilgan neki fenomen bor, jur’atga aylangan neki hadd bor – bularning barchasi uning kundalik xulqida,

<sup>6</sup> Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Тошкент: “Ma’naviyat”, 1999. – Б. 16.

<sup>7</sup> Qarang: Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Тошкент: “Ma’naviyat”, 1999.

<sup>8</sup> Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Тошкент: “Ma’naviyat”, 1999. – Б. 19.

<sup>9</sup> Qarang: Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2019.

yurish-turishi, hatti-harakatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy hayotning ushbu elementlari shaxs kundalik faoliyatiga sifat va yo'nalish beradi;

- ma'naviy dunyo Vatanga munosabatning asl sababchisidir. Vatanga muhabbat, uning manfaatlari yo'lidagi fidoyilik ham undan kelib chiqadi. Vatanparvar Vatan manfaatlarini yaxshi biladi, ularni qondirish yo'lida jonbozlik qiladi. Vatanga, uning manfaatlariga e'tiborsizlik ma'naviy qiyofa shakllanishidagi nuqsonlardan dalolat beradi;

- ma'naviy qiyofa insonning o'z kasbiga munosabatida namoyon bo'ladi. Kasb hamisha odam bolasining ichki dunyosi xossalariga hamohangdir. U shaxsning ma'naviy o'ziga xosliklari asosida tanlanadi. Kasb-kor talablarining ado etilishi me'yorini ham ma'naviy qiyofa belgilaydi;

- o'zgalarga munosabati inson ma'naviy qiyofasining yorqin ifodasidir. Yuksak kechinmalar va fazilatlarga, insonparvar e'tiqod va qadriyatlarga ega shaxs jamiyatning boshqa a'zolariga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi. Aksincha, negativ kechinmalar va turfa illatlarga tutqun bo'lib qolgan, e'tiqodi va qadriyatlari insonparvarlikdan yiroq inson o'zga kishilarni ham qadrlay bilmaydi;

- inson ma'naviy qiyofasi uning sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy dunyosi boy kishi atrofida yuz berayotgan voqealarning mohiyatini tez ilg'ab oladi, hayotga pozitiv munosabatda bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglay olmaslik, voqealardan nuqul nuqson izlash – ma'naviy dunyoning torligidan dalolatdir.

Dissertatsiyada ma'naviy qiyofa eng avvalo, tarixiy taraqqiyotning muayyan davrida hukm surgan ijtimoiy muhit mahsuli sifatida ta'kidlangan. Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida inson hayoti kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy shart-sharoitlar shaxs ma'naviy qiyofasining barcha elementlarida chuqur iz qoldirgan, ularning o'zgarishi esa pirovardida inson ma'naviy dunyosining ham o'zgarishiga sabab bo'lgan. Masalan, inson tuyg'u va kechinmalari, bilim va e'tiqodi, fazilatlari va xislatlari, qadriyatlari va ideali, irodasi va ma'naviy jur'ati turli davrlarda hukm surgan ijtimoiy muhitga mutanosib ravishda shakllana borgan.

Ijtimoiy muhit – ma'naviy qiyofa modeli hamda paradigmasi manbayidir, xolos. Ammo bu model turli jamiyatlarda turli xil shaklga ega bo'ladi. Masalan, ibtidoiy jamoalarda yashagan odam bolasi dunyoqarashi va ruhiyati mifologik xarakterda bo'lgan<sup>10</sup>. Ayni paytda o'sha davrda bir jamoada yashagan kishilarning ma'naviy olami bilan boshqa jamoa vakillari ma'naviy qiyofasi o'rtasida farqlar ham mavjud bo'lgan. O'rta asrlar kishilik jamiyatida odamlar ma'naviy qiyofasi o'zining teotsentrik xarakteri bilan tavsiflanardi, ayni paytda o'sha davrda turli jamiyatlarda yashagan individlar tuyg'u va kechinmalari, bilim va qadriyatlari, fazilat va xislatlarining shakllanganligi darajasida tafovutlar mavjud edi<sup>11</sup>. Uyg'onish davrida antropotsentrizm barcha jamiyatlarda kishilar ma'naviy qiyofasi xarakterini belgilovchi paradigmaga aylandi, biroq bu umumiy paradigma shu

<sup>10</sup> Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Ж.1.- Т.:Ўзб.файл.миллий жам. нашр., 2019.- Б.817.

<sup>11</sup> Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб.- Т.:Ўзб.файл.миллий жам. нашр., 2007.- Б.58-64.

davrda mavjud bo'lgan sotsiumlar ma'naviyatini aynanlashtirib yuborgani yo'q<sup>12</sup>. Insoniyat rivojining keyingi bosqichlarida ham shunday holat kuzatiladi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, bir davrda turli jamiyatlarda yashagan kishilar ma'naviy qiyofasining bir xil paradigmaga ega bo'lgan holda turli shakllar kasb qilishining sababi shundaki, shaxs ma'naviy olami nafaqat davr ijtimoiy muhiti, balki jamiyatda kechayotgan turfa ijtimoiy jarayonlar ta'sirida ham shakllanadi. Bu jarayonlar kishilarning hissiy olamidan tortib aql-zakovatiga qadar, bilimlari saviyasidan tortib qadriyatlariga qadar – barcha-barchasini yo'naltirib, muvofiqlashtirib boradi.

Ayni paytda, *birinchidan*, har bir jamiyat o'ziga xos shart-sharoitlarga ega. Ular barcha kishilarga birdek ta'sir ko'rsatadi. Lekin ularning ma'naviy qiyofalarida muayyan tafovut mavjud bo'ladi. Xo'sh, bunday farqning sababi nimada? *Ikkinchidan*, inson tuyg'u va kechinmalari, kayfiyati va tasavvurlari uning umri davomida o'zgarib boradi. Bolalikdanoq o'zlashtirila boshlangan ma'lumotlar va bilimlar yetuklik davriga kelib tizimli tus oladi. Shaxs e'tiqodi ham umr mobaynida mustahkamlana boradigan fenomendir. Yoshlikda kurtak ko'rsatgan fazilat va xislatlar yetuklikda yorqinroq namoyon bo'la boshlaydi. Shaxs qadriyatlari va ideali, irodasi va ma'naviy jur'ati xususida ham shunday deyish mumkin: ular inson umri davomida o'zgarmaydigan, qotib qolgan fenomenlar emas. Xo'sh, konkret shaxs ma'naviy qiyofasining o'zgara borishi sababi nimada? Konkret inson hayoti va faoliyati bir-biri bilan bog'liq omillar ta'sirida ham shakllanadi. Ular turkumiga inson umri kechayotgan mikromuhit, uning ijtimoiy kelib chiqishi, salomatligi, tanlagan kasb-kori, ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash kabi omillarni kiritish mumkin.

Tadqiqotda shaxs ma'naviy qiyofasi insoniylik me'yorini tavsiflashda qo'llanilishi, shaxs ichki dunyosining ijobiy jihatlarini o'zida mujassam qilishi va pozitiv elementlardan tarkib topishi asoslab berilgan. O'z rivojida konkret shakl-u shamoyil, me'yor va chegaraga ega bo'lmagan shaxs ma'naviy qiyofasi elementlari ma'naviy yuksaklikni ixtiyor etgan insonning butun hayoti davomida o'zaro aloqadorlikda va o'zaro ta'sirda o'zgarishi qayd etilgan. Yuksak ma'naviy qiyofa har qanday jamiyatning ijtimoiy kapitali, uning jadal taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil ekanligi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar kontekstida shaxs ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar”** deb nomlanib, unda mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarning strategiyasi va asosiy natijalari, bu natijalarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri hamda ma'naviy qiyofada sodir bo'lgan o'zgarishlar tadqiq qilingan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda iqtisodiy islohotlar strategiyasi shakllantirildi va uning asosiy maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni

---

<sup>12</sup> Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар таракқиёти. Биринчи китоб.- Т.:Ўзб.файл.миллий жам. нашр., 2007.- Б.65-73.

shakllantirish bilan bog'landi<sup>13</sup>. Mazkur strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan yangilanishlar asosan ikki bosqichda (*o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish davri, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish davri*) amalga oshirildi.

Biroq yangi asrning dastlabki o'n yilligi oxirlariga kelib, erishilgan muvaffaqiyatlar bilan birga iqtisodiy islohotlarning qator muammoli jihatlari ham ko'zga tashlandi. Xususan, yigirma yillik islohotlarda asosiy e'tibor o'zbek davlatchiligini barpo etishga, bunga imkon beradigan iqtisodiy zaminlarni mustahkamlashga qaratildi. Buning oqibatida mamlakatdagi iqtisodiy yangilanishlar davomida birlamchi darajada davlat ahamiyatiga molik manfaatlar qondirildi, jamiyat va inson manfaatlari ikkilamchi ahamiyat kasb etib keldi. Ikkinchi tomondan, yangi asrning dastlabki o'n yilligida jahondagi iqtisodiy munosabatlar ham murakkablashdi, jahon bozorida mutlaqo yangicha vaziyat yuzaga keldi.

Mamlakat iqtisodiyotida yuzaga kelgan vaziyatni, jahon bozorida hukm surayotgan shart-sharoitlarni inobatga olgan holda O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"<sup>14</sup> ishlab chiqildi. Ushbu hujjatda davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuyi belgilab olindi. Keyingi yillarda olib borilgan yangilanishlar jarayoni, davlat iqtisodiy siyosati natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Ushbu asoslarga tayanib hamda jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>15</sup> ishlab chiqildi. Uning mazmunidan ko'rinadiki, iqtisodiy islohotlar taraqqiyot strategiyasida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning maqsadi davr talablariga javob beradigan va katta salohiyatga ega bo'lgan milliy iqtisodiyotni yuzaga keltirish bilan bog'lanmoqda.

2023 yilda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi<sup>16</sup> qabul qilinishi yangilangan konstitusiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etdi. Shuni inobatga olgan holda davlat rahbari rahnamoligida "O'zbekiston-2030"

<sup>13</sup> Qarang: Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 183-184.

<sup>14</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>

strategiyasi<sup>17</sup> ishlab chiqildi. Mazkur strategiyada barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash borasidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, mamlakatda amalga oshirilgan va oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar unda yashayotgan shaxs ma‘naviy qiyofasini keskin o‘zgartirdi. “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarimoqda”<sup>18</sup>, – deb ta‘kidlaydi Sh.M.Mirziyoyev. Xususan:

*birinchidan*, iqtisodiy islohotlar ta‘sirida jamiyat a‘zolari ma‘naviy qiyofasining hissiy jihati tubdan o‘zgardi. Buni kishilar tuyg‘u va kechinmalarida, kayfiyat va tasavvurlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarda ko‘rish mumkin. Jamiyat a‘zolarining ijtimoiy tasavvurlari xarakteri tubdan o‘zgardi. Iqtisodiy islohotlar sharofati bilan kishilarning jamiyat iqtisodiy sohasi haqidagi tasavvurlari, ayniqsa, jiddiy transformatsiyaga uchradi. Ayni paytda kishilar kayfiyatida qator negativ holatlarning avj olayotgani ham ko‘zga tashlanadi. Jamiyat a‘zolarining katta qismida turli mahsulotlarni iste‘molchilik kayfiyati ildiz otmoqda<sup>19</sup>. Iqtisodiy islohotlarning kuchli ijtimoiy siyosat bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi ayrim toifa kishilarining boqimandalik kayfiyatidan xalos bo‘lishini sekinlashtirmoqda. Jamiyat a‘zolarining bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi tasavvurlari sayozligicha qolmoqda;

*ikkinchidan*, iqtisodiy islohotlar ta‘sirida jamiyat a‘zolari ma‘naviy qiyofasining aqliy jihati tubdan o‘zgardi. Kishilar ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga qizg‘in munosabat bildirmoqdalar, ularning asl mohiyatini ilg‘ab olishga intilmoqdalar. Shaxs iqtisodiy ma‘lumoti tabiatining o‘zgarishi, iqtisodiy bilimlari doirasining kengayishi uning e‘tiqodida ham iz qoldirdi. Biroq kundalik hayotdagi kuzatishlar bu borada qator salbiy holatlar ham mavjudligini ko‘rsatmoqda. Masalan, iqtisodiy islohotlar shaxsning o‘z mehnati natijalaridan manfaatdorligi darajasini oshirdi. Lekin jamiyat a‘zolarida har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham, muayyan natijaga erishish ilinji avj olayotgani o‘ylantirmay qo‘ymaydi. Bunday yondashuv shaxs iqtisodiy odobiga putur yetkazmoqda;

*uchinchidan*, iqtisodiy islohotlar jamiyat a‘zolari ma‘naviy qiyofasining sifatijihatini o‘zgartirdi. Iqtisodiy yangilanishlar jarayonida shaxsning ayrim fazilat va xislatlari rivoj topdi, boshqalari esa ikkilamchi ahamiyat kasb qildi. Iqtisodiy islohotlar insonning o‘z turmushiga, mehnatiga, moddiy ne‘matlarga munosabatini o‘zgartirdi. Ayni paytda bozor iqtisodiyoti tamoyillarining joriy qilinishi jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalashuvni o‘tkirlashtirdi. Buning natijasida

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.

<sup>18</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston”, – 2023. – B.277.

<sup>19</sup> Худойбердиев Д. Ёшлар истеъмолчилик хулқи: мазмуни ва шакллари, ўзгариши сабаблари ва оқибатлари. – Қарши: Фан ва таълим, 2021. -Б.21

moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lgan kishilarning ma'lum qismida hashamatga moyillik, molparastlik, shuhratparastlik kabi illatlar paydo bo'ldi;

*to'rtinchidan*, iqtisodiy islohotlar jamiyat a'zolari ma'naviy qiyofasining aksiologik jihatini o'zgartirdi. Ularning ta'sirida ayrim qadriyatlar qadrsizlandi (masalan, yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda lafzga amal qilish mushkullashdi), boshqalarining esa qadriyatlar iyerarxiyasidagi mavqeyi o'zgardi (jumladan, mehmonga borish va mehmon kutishga vaqt yetmayotgani mehmondo'stlikning qadriyatlar iyerarxiyasidagi mavqeyini tushirmoqda). Iqtisodiy islohotlar ta'sirida hatto shaxs orzu-umidlari, ehtiyoj va manfaatlarida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ehtiyojlar ko'paygani, ularni qondirish murakkablashgani bois turli tashvishlar girdobiga qolgan ba'zi kishilar qadriyatlar mo'ljalini yo'qotmoqda;

*beshinchidan*, iqtisodiy islohotlar jamiyat a'zolari ma'naviy qiyofasining irodaviy jihatiga ta'sir ko'rsatdi. Yuzaga kelgan vaziyatda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan va bu maqsad sari uzluksiz intiladigan kishilar soni ko'paydi. Shuningdek, o'z hayotiy pozitsiyasini oshkor ifodalashga, turli ijtimoiy jarayonlarga munosabat bildirishga, mavjud salbiy holatlarni tanqid qilishga ma'naviy jur'at topayotgan odamlar soni oshmoqda. Lekin samarali iqtisodiy islohotlar sharofati bilan vujudga kelgan erkinlik va oshkoralik muhiti jamoat joylarida o'zini tutish normalariga erkin munosabatni ham shakllantirmoqda. Bunday munosabat turli ijtimoiy normalarni atayin buzishga jur'at qiladigan kishilar sonining oshishiga olib kelmoqda;

Tadqiqotda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar shaxs ma'naviy qiyofasining hissiy, aqliy, sifatiy, aksiologik va irodaviy jihatlariga yangicha tus berishi qayd etilgan hamda ularning progressiv xususiyatlari bilan bir qatorda destruktiv jihatlar ham asoslab berilgan. Shuningdek, yangi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar shaxs ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning yangi omil va vositalarini ishlab chiqishni talab qilayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda shaxs ma'naviy qiyofasini yuksaltirish imkoniyatlari**" deb nomlanib, unda yangi ma'naviy makonni barpo etish hamda shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlovchi mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati tadqiq etilgan.

